XALQ DEPUTATLARI FORISH TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-may VII-7-55-3-53-K/25 Forish tumani

Forish tumani bo‘yicha 2025-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Forish tumani “Suv yetkazib berish xizmati” DM direktori B.Ibrohimovning Forish tumani bo‘yicha 2025-yil vegetatsiya davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limiti to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin va ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Forish tumani “Suv yetkazib berish xizmati” DM direktori B.Ibrohimovga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori asosida ishlarni tashkil etish;
- belgilangan limitlar asosida iste’molchilarga suv yetkazibberish;
- o‘ziga biriktirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish;
- sug‘orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash, ta’mirlash-tiklash tadbirlarini amalga oshirish;
- suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisoboti yuritilishini raqamlashtirish;
- iste’molchilar kesimida iste’mol qilingan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga taqdim etib borish;
- suv iste’molchilarining buyurtmanomasi asosida boshqa suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobotlarni o‘z vaqtida berib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (R.Karimov)ga mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari K.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi MATIYEV IKROM SINDAROVICH

Xalq deputatlari Forish tumani Kengashining
2025-yil 6-maydagi
VII-7-55-3-53-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Forish tumani bo‘yicha 2025-yil sug‘orish (vegetatsiya) davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limiti

№	SIU va boshka xo'jaliklar nomi	Okim, mln. m3	Aprel			May			Iyun			Iyul			Avgust			Sentabr		
			I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
1	Moviy bog‘lari	0,0420	0,002	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,004	0,002	0,001	0,001	0,00
2	GRENGOLD MCHJ	0,0370	0,002	0,003	0,003	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,004	0,002	0,001	0,001	0,00
3	Visola Saidova	0,0420	0,002	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,004	0,002	0,001	0,001	0,00
4	Tog‘ bodomi X\K	0,0750	0,003	0,004	0,004	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,003	0,001	0,001	0,00
5	Orifa-begim O\K	0,0709	0,003	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,003	0,001	0,001	0,00
6	Olimlar makoni	0,0590	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,003	0,003	0,0001	0,0001	0,00
7	Bunyodkor mevalari	0,0620	0,003	0,004	0,004	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,003	0,003	0,001	0,001	0,00
8	Bog‘don atirguli	0,0358	0,001	0,002	0,002	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,003	0,001	0,001	0,001	0,00
9	Barakali chorva nur	0,0358	0,001	0,001	0,001	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,003	0,001	0,0001	0,0001	0,00
10	G‘ulomAsilbek	0,0250	0,001	0,001	0,001	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,001	0,0001	0,0001	0,00
11	Tong F\X	0,0350	0,001	0,001	0,001	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,004	0,004	0,004	0,004	0,004	0,003	0,001	0,001	0,001	0,00
12	JIZZAX GOLD	0,1070	0,004	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,005	0,006	0,006	0,006	0,006	0,006	0,005	0,004	0,001	0,001	0,00
13	SAXOB SARVAR	0,0368	0,002	0,002	0,002	0,003	0,003	0,003	0,004	0,004	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,004	0,002	0,001	0,001	0,00
14	Kenja Gulnora F\X	0,0367	0,002	0,002	0,002	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,003	0,002	0,0001	0,0001	0,0

Xo‘jalik chegarasida:		**0,7**	**0,03**	**0.04**	**0.04**	**0.05**	**0,05**	**0,05**	**0,05**	**0,05**	**0,06**	**0.06**	**0.06**	**0,06**	**0,06**	**0,05**	**0,03**	**0,01**	**0,01**	**0,00**
Soy-Buloqlardan																				
1	Qo‘lba MFY	**24.4**	0.3	0.3	0.6	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	1,9	1,8	2,0	1,9	1,1	0,7	0,5	4,1	5,4	6,50
2	Bog‘don MFY	**6.8**	0.1	0.1	0.2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,5	0,5	0,6	0,5	0,3	0,2	0,2	1,2	1,5	1,80
3	Oybek MFY	**9.2**	0.1	0.2	0.2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,7	0,7	0,8	0,7	0,4	0,3	0,2	1,6	2,1	2,40
4	O‘zbekiston	**1.2**	0.1	0.1	0.1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,0	0,2	0,3	0,30
Jami		**41,6**	**0,6**	**0,7**	**1,1**	**0,2**	**0,2**	**0,2**	**0,2**	**0,2**	**3,2**	**3,1**	**3,5**	**3,2**	**1,8**	**1,2**	**0,9**	**7,1**	**9,3**	**11,0**
Tuman bo‘yicha		**42,3**	**0,6**	**0,8**	**1,1**	**0,2**	**0,2**	**0,2**	**0,2**	**0,3**	**3,2**	**3,1**	**3,5**	**3,3**	**1,9**	**1,3**	**1,0**	**7,1**	**9,3**	**11,0**